



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI



**13-14
MAY
2022**

**“BOSHLANG‘ICH VA
MAKTABGACHA TA‘LIM
SIFATI VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR VA
XALQARO
TAJRIBALAR”**

**Respublika ilmiy-amaliy
anjumani**

Buxoro - 2022



OPEN  ACCESS



bog'lanishini o'rganish asosida esa o'quvchilar yuqori sinf ona til darslariga zamin tayyorlaydi. Sonni o'rganish jarayoni yuqori sinflarda ham bevosita davom etadi, chuqurlashtirilgan holda olib boriladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova M. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. 2009-yil.
2. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent-2011-yil
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov V., Shokir Tursun. I sinf ona tili va o'qish savodxonligi.2021-yil
4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov V., Shokir Tursun. II sinf ona tili va o'qish savodxonligi.2021-yil
5. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. III sinf ona tili darsligi. T: O'zbekiston.2019-yil.
6. Ikromova R., G'ulomova X. IV sinf ona tili darsligi. T: O'zbekiston. 2017-yil.
7. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
8. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
9. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Conferences. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari 10.Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
11. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве // european research. – 2020. – С. 132-134.
12. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
13. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com>.2020. 321-326.
14. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
15. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel " Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
17. Xudoyberdiyeva N. Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi //Научно- практическая конференция. – 2022.

BOSHLANG'ICH SINFDAN MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TEJAMKORLIK KO'NIKMASINI TARKIB TOPTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567411>

M.M. Qosimova,
BuxDU dotsenti
Z.U. Usmonova,
1-bosqich magistranti

Annotatsiya Maqolada o'quvchilarni tabiiy boyliklarimizdan unumli foydalanishga o'rgatish muammosi yoritilgan. Asosan vaqt, suv, elektr energiyasidan tejamkorona foydalanish masalalari tahlil qilingan. Boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilarni mustaqil va erkin fikrlaydigan, o'z fikrini erkin bayonqila oladigan inson qilib tarbiyalash o'qituvchilarning bosh vazifasiga aylanmog'i kerak. Bunday xislatlar esa kelgusida raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashning poydevordir. Matematika darslarida masalalar o'quvchilarni ziyrak, topqir, samimiy, Vatanini sevuvchi, do'stlikni ulug'lovchi, tejamkor, mustaqil fikr egasi sifatida tarbiyalash uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tejamkorlik, tabiiy boyliklar, vaqt, suv, elektr energiyasi.

Quyida masalalar yechish jarayonida o'quvchilarni tejamkorlikka o'rgatish bo'yicha ayrim dalillarni yoritib bermoqchimiz.

1. Vaqtni tejash yoki vaqtdan unumli foydalanish.

Vaqt imkoniyatlar kalitidir. Hayot vaqtdan iborat. Inson uchun eng qimmatli narsa vaqtdir. Yo'qotilgan vaqtini hech qachon qaytarib bo'lmaydi. Yoshlarga orzularini ro'yobga chiqarish, ularga tezroq amalga oshirish uchun imkoniyatlar qayta-qayta berilavermaydi. Yoshlarimizga talaba bo'lishdek baxt, imkoniyat berilgan ekan bu imkoniyatda vaqtdan unumli foydalanishimiz muhim. Asosiysi til o'rganishga, kompyuter texnologiyalarini o'rganishda, tikish-bichish sirlaridan xabardor bo'lishga, turli xildagi pishiriqlar pishirishni o'rganishda sarflasak hech qachon bizga zarar qilmaydi. Vaholanki, har bir inson 24 soatdan iborat sutkalik vaqtini to'g'ri ta'qsimlay olsa, qolaversa haftalik taqsimotni har bir daqiqasidan unumli foydalansa maqsadga muvofiq

bo'ladi.

Ayrim hollarda ko'ramizki, yoshlarimiz internet tarmoqlaridan maqsadsiz foydalanib o'z vaqtlarini bekorchi o'yin, informatsiyalarga yo'qotadi. Bu esa vaqtning besamar ketishi hisoblanadi, vaqtimizni tejash orqali hayotimizda berilgan imkoniyatlardan yuqori darajada foydalanish – bilim, til, kasb-hunar o'rganish orqali maqsadimizni amalga oshirish yo'lidagi muhim bosqichdir deb o'ylayman.

2. Hayot manbai bo'lgan suvni tejab ishlatishga qaratilgan masalalar.

Odam hayoti uchun zarur ne'matlardan biri suvdur. Undan odam ehtiyotkorlik bilan foydalanishi maqsadga muvofiq. Suv – hayot manbai. Tasavvur qiling ishdan, o'qishdan qaytganimizda uyimizda 2 soat suv bo'lmasa qanchalik mashaqqatlar yuz beradi. Shu vaziyat 1 sutka, 2 sutka yuz bersa nimalar bo'lishini xayolga ham keltira olmaymiz. Respulikamiz bu borada bir qancha qaror qabul qilindi 2019- yil 25-oktabrda chiqarilgan qarorda suv tejovchi texnologiyalardan foydalanuvchi fermerlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi aytib o'tiladi. Joylarda suvni tejash dastur ishlab chiqildi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda har bir kishi kuniga o'rtacha 140-160 litr suvni to'g'ridan-to'g'ri ovqat pishirish, cho'milish, tozalash, sug'orish va hokazolar uchun sarflaydi. Suv manбайдan tejamkorona foydalanishni o'rgatish bugungi davr talabidir. Shunday ekan o'quvchilarga masalalar yechish jarayonida tejamkorlik xislatlari shakllanish maqsadga muvofiqdir

1-masala. Suv jo'mragidan 1 sekundda 1 tomchi suv oqib tursa va 1 tomchi taxminan 1 gramm deb qaralsa, 1 soatda, 1 sutkada qancha suv isrof bo'ladi?.

Masala yechimi: 1 sutka 24 soatdan, 1 soat 60 minut yoki 3600 sekunddan iborat. Demak, 1 sutkada 86400 sekund bor. Bir sutkada suv jo'mragidan 86400 gramm yoki taxminan 90 litr suv behuda oqib isrof bo'lar ekan. Bu suv ichimli suv sifatida qaralsa va bir odam 1 kunda taxminan 2 litr suv ichishi mumkinligini nazarda tutsak, $90:2=45$ kun, bir odamning ichimli suvi bo'lar ekan. Yoki bir kunda 45 nafar insonning ichadigan suvidir. Bu bir suv jo'mragidan tomchilab turgan suv hajmidagi masala. Afsuslar bo'lsinki, juda ko'plab suv jo'mragidan behuda oqib turgan suvlar inson ko'nglini xira qiladi. Ko'pchilik odamlar bu holatga befarq qaraydi. O'qituvchi o'quvchilarga bunday holatlarga befarq bo'lmaslikni o'rgatib borishi, suvni tejab ishlatishga, isrof qilmaslikka o'rgatib borishi zarur.

Hozirgi kunda xonadonlarga suvni o'lchash asbobi o'rnatilgan. O'qituvchi shu to'g'rida masala tuzib, uni yechishni tavsiya qiladi.

Suvni tejab ishlatish bo'yicha o'qituvchi o'quvchilarni suv jo'mragini to'liq ochib suvni oqizib qo'lni yuvish, yoki biror meva yoki sabzavotni chayish kabi ishlarining oldini olishga chaqirishi shart. Ko'pchilik hollarda tanaffus paytlarida shunday holatlarni tez-tez kuzatish mumkin. Shu sababli matematika darslarida suvni tejab, isrof qilmaslikka doir masalalarni tez-tez yechib turish maqsadga muvofiqdir.

3. Elektr energiyasini tejashga qaratilgan masalalar

Elektr chirog'i yonganida yoki elektr asboblari ishlatilganda elektr energiyasi sarflanadi. Elektr asboblari hayotda juda ko'p joylarda ishlatiladi: elektr pechlari, elektr dazmoli, isitish tarmoqlari, elektr choynak, elektr nasos, elektr choyshab va boshqalar.

Elektr energiyasi elektr stantsiyalarida ishlab chiqariladi. Uni ishlab chiqarishda suv, gaz va neft mahsulotlaridan foydalaniladi. Elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanish kerak.

Elektr energiyasi kilovatt-soat deb nomlangan o'lchov birligida o'lchanadi. Sarflangan 1 kilovatt- soat elektr energiyasi uchun aholi 295 so'm haq to'laydi (2019-yil avgust oyidagi narx bo'yicha).

Xonadonda sarflanayotgan elektr energiyasi uchun maxsus hisoblagich ko'rsatkichiga qarab, har oyda to'lov amalga oshirildi.

1- **masala.** Elektr dazmol 1 soat ishlatilganda 1,5 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflanadi. Dazmol 3 soat ishlatilsa necha so'mlik elektr energiyasi sarflanadi?

Bunday masalani yechish jarayonida dastlab, elektr tarmoqlaridan to'g'ri foydalanish zarurligi, dazmoldan o'rinni foydalanib, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarurligi ta'kidlanadi. Masala yechilib, 3 soat dazmol ishlatilganda qancha mablag' sarflanishi aniqlab olinadi.

2- **masala.** Elektr chirog'i 10 soat yonib tursa, 1 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflanadi. Kechasi yo'lak 10 soat davomida yoritildi. Bir oy (30 kun) davomida yo'lakni yoritish uchun davlat tomonidan qancha mablag' sarflanadi?

Ushbu masalani yechish orqali o'quvchilar elektr energiyasini tejab ishlatishga chaqiriladi.

Masala yechimi: Demak, 1 ta elektr chirog'i 1 kecha, ya'ni 10 soat davomida 1 kilovatt-soat energiya sarflasa, 1 oy davomida 30 kun davomida 30 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflanadi. 1 kilovatt-soat elektr energiyasi 295 so'm ekanligini inobatga olsak, $295 \times 30 = 8850$ so'm davlat mablag'i sarflanadi.

3- **masala.** Xonadonda bir oy davomida 50 soat keraksiz yonib turgan uchta elektr chirog'i uchun necha so'm to'lash kerak bo'ladi?

Bu masala ham xuddi yuqoridagidek yechiladi. 1) $50:10=5$ (marta)

2) $1 \times 5 = 5$ (kilovatt-soat)

3) $295 \times 5 = 1475$ (so'm) - 1 ta elektr chirog'i uchun to'lash kerak bo'lgan pul.

4) $1475 \times 3 = 4425$ (so'm) - 3 ta elektr chirog'i uchun to'lash kerak bo'lgan pul. O'qituvchi maktab misolida ham olib elektr energiyasini tejash zarurligini aytib o'tadi.

O'quvchilar, maktabimizda 30 ta sinf bor. Shu 30 ta sinfdagi elektr chiroqlari bir kechasi o'chirilmay qolsa, qancha elektr energiyasi sarflanadi. Davlatning qancha puli isrof qilingan bo'ladi? 1 kechani taxminan 10 soat deb qarasa, bitta sinf xonasidagi elektr chirog'i 1 kilovatt-soat elektr energiyasini sarflagan bo'ladi. 30 sinf xonasi uchun 30 kilovatt-soat sarflangan bo'ladi. Bular uchun davlatning $295 \times 30 = 8850$ so'm mablag'i behuda sarflangan bo'ladi. Bu bir maktabimiz misolida olindi. Shahrimiz, viloyatimiz, respublikamiz misolida olinsa qancha mablag' isrof qilinishini tasavvur qiling.

Shunday masalalar orqali o'qituvchi o'quvchilarni qayerda kunduzi behuda yonib turgan chiroqni ko'rsa, darhol o'chirib lozimligini, elektr energiyasini tejab ishlatishga o'rgatib borishi zarurligini uqtiradi.

Bundan tashqari non, non mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlarini tejashni, pishirilgan ovqatni isrof qilmaslikni uqtirib o'tish kerak.

Qotib qolgan nonlarni qayta tayyorlash (qotgan nonlar parchasi, kotletlar) mumkinligi ta'kidlanadi.

O'quvchilarni har doim noz-ne'matlardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka o'rgatib borilsa, ular maktabda bo'ladimi, xoh uydami, jamoat joylaridami, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka harakat qilib, tajamkorlikka e'tibor beradigan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
2. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
3. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
4. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
5. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве // European research. – 2020. – С. 132–134.
6. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Center "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools // www. auris-verlag. de. – 2017.
7. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils' knowledge based on the qualilogical approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com>.2020. 321-326.
8. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! // Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
9. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*.
10. Xudoyberdiyeva N. Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi // Научно- практическая конференция. – 2022.
11. M.Qosimova K. Karimova "PROBLEMS OF FINDING THE SUM OR DIFFERENCE OF TWO NUMBERS AND THEIR" Актуальные вопросы современной науки и образования.
12. M.Qosimova . A. Qosimov " On some typical problems to be solved in primary schools" *An International Multidisciplinary Research Journal* January 2021
13. F.Qosimov, A.Qosimov, M.Qosimova " " To develop students', skills of nature conservation and respect for human labor by teaching them to solve environmental problems" *Asian Journal of multidisciplinary Research (AJMR)*, January 2021 4.
14. Qosimov, Fayzullo Muxammadovich, and Mavluda Muxammadovna Qosimova. Ikki (yoki bir necha) sonni ularning yigindisi va ayirmasiga kora topishga doir masalalar. *Scientific progress* 2.6 (2021): 1138-1145
15. Kasimov, Firdavs Fayzullo o'g'li. Masalani muhokama qilib yechish orqali o'quvchilarda xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish. *Scientific progress* 2.7 (2021): 1038-1047.
16. Kasimova, Mavluda Mukhammedovna, and Kamola Karimova. Problems of finding the sum (or difference) of two numbers and their ratio." *актуальные вопросы современной науки и образования*. 2021.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI TABIATSHUNOSLIK FANIBILAN INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567419>

M. M. Murodova,



1930

**BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI**

BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI: INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO TAJRIBALAR



OPEN  ACCESS

BUXORO 2022